

Universitet rekrorining
2024-yil “___” ____ dagi
____-sonli buyrug‘iga 2-ilova

**“Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida
“Eng yaxshi rasmlar” tanlovini o‘tkazish
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tanlov Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-noyabrdagi 426-sonli ““Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida “Eng yaxshi rasmlar”, “Korrupsiyadan holi ta’lim muassasasi” mavzusida “Eng yaxshi videoroliklar” respublika ko‘rik-tanlovlari hamda Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bilimlar bellashuvini tashkil etish to‘g‘risida” gi buyrug‘i va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosarining 2024-yil 1-avgustdagi 03-23-181-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyundagi 15-son bayonnomasi va ilovalarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minalash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” dagi 3-ilova, 16-bandи talablari ijrosini ta’minalash maqsadida tashkil etiladi.

2. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida o‘tkaziladigan “Eng yaxshi rasmlar” tanlovida universitetda tahsil olayotgan barcha talabalar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.

3. Nizom universitetda korruption holatlarni oldini olish, talabalarni bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish hamda tanlov yuzasidan sovrindor talabalarni rag‘batlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni tartibga soladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovning maqsadi - yoshlarning korrupsiya holatlariga qarshi bilim va malakalarini oshirish hamda universitetda korruption holatlarni oldini olishdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

 yoshlar o‘rtasida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash, ularni turli korruption holatlarga aralashib qolishlarining oldini olish;

 yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli komil inson qilib tarbiyalash.

III. Tanlovni o‘tkazish tartibi, bosqichlari va muddatları

6. Universitetda tuzilgan tashkiliy ishchi guruhi rahbari tanlovning yuqori saviyada tashkil etilishiga shaxsan mas’ul hisoblanadi.

7. Tanlovni o‘tkazish bo‘yicha mutaxassislar (universitet xodimlari, professor o‘qituvchilar) dan iborat Hakamlar hay’ati tuziladi.

8. Tanlov 2 bosqichda o‘tkaziladi (*oliy ta’lim muassasasi va respublika*).

Oliy ta’lim muassasasi bosqichi – fakultetlar o‘rtasida joriy yil noyabr-dekabr oyalarida o‘tkaziladi.

Respublika bosqichi – oliy ta’lim muassasasi bosqichi g‘oliblari o‘rtasida joriy yil dekabr oyining birinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi va g‘oliblar eng yuqori balldan pastga qarab ketma-ketlikda aniqlanadi.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

9. Tanlovga taqdim etiladigan ijodiy ishlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

ijodiy ishlar tasviriy san’atning rangtasvir yo‘nalishida hamda dizaynning kompyuter grafikasi va badiiy foto yo‘nalishida ishlangan bo‘lishi;

ijodiy ishlarni yaratishda ijodiy dunyoqarash bilan fikrlash, nostandart yondashuv va professionallik bo‘lishi;

ijodiy ishlar rassomning yuqori kasbiy mahoratini, badiiy material yoki texnikani egallash darajasini aks ettirishi;

taqdim etiladigan rasmlar Al hajmdan kam bo‘lmasligi talab etiladi.

10. Tanlovga taqdim etiladigan ijodiy ishlar Hakamlar hay’ati tomonidan quyidagi mezonlarda baholanadi:

tanlov mavzusining mazmun-mohiyati todaqonli ochib berilganligi; ranglarning aniq tanlanganligi va mutanosibligi; ijodiy ishning kompozitsion joylashtirilish mahorati;

ijodiy ishdagi texnika mahorati (ranglar bilan ishslash, yorugdik va soyalarni ishslash mahorati);

kompozitsianing ishlanish mahorati va g‘oyaning tugallanganlik darjasи;

yangicha yondashuvlar, mustaqil fikrlar va ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi;

rasmda hayotiy misollardan keng foydalanilganligi va mentalitetimizga mos manbalaming yoritiganligi.

11. Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi (jami 70 ball).

V. Hujjatlarni taqdim etish tartibi

12. Tanlovga taqdim etiladigan rasm (rangli yoki oq qora, devorga osiladigan targ‘ibot matni yoki rasmi tushirilgan surat)lar Al hajmda, ko‘rinishi va matni yaxlit, diqqatni tortadigan, axborot, reklama, targ‘ibot-tashviqot va uslubiy-metodik o‘quv jarayonini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lishi kerak. Rasmlar qo‘lda chizilgan, fotosurat, banner yoki bosma ko‘rinishida qabul qilinadi. Rasmni tayyorlashda turli innovatsion-amaliy uslublardan foydalanish mumkin. Rasm mavzulari: axborot, reklama, targ‘ibot va tashviqot, uslubiy-metodik o‘quv jarayonini o‘z ichiga qamrab oladi.

13. Talabalarning ijodiy materiallari – rasm (rangli yoki oq qora, devorga osiladigan targ‘ibot matni yoki rasmi tushirilgan surat)lar “Muhandislik grafikasi va dizayn” nazariyasi kafedrasi mudiriga joriy yilning 23-noyabr sanasiga qadar taqdim etiladi.

14. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi. Mualliflik huquqi buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Plagiat holati aniqlanganda ish tanlovdan chetlatiladi.

VI. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

15. Tanlovda yuqori (1-, 2-, 3-) o'rirlarni egallagan talabalar universitet tomonidan maxsus diplom va quyidagicha pul mukofoti:

1-o'rin – 1.500.000 (bir million besh yuz ming) so'm;

2-o'rin – 1.000.000 (bir million) so'm;

3-o'rin – 500.000 (besh yuz ming) so'm bilan rag'batlantiriladi.

Shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan talabalar universitetning faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi. Yuqori (1-, 2-, 3-) o'rirlarni egallagan talabalarning ijodiy ishlari universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritiladi.

16. Hakamlar hay'ati tomonidan qabul qilingan qarorga nisbatan qaror nusxasi berilgan sanadan boshlab 3 kunlik muddat ichida manfaatdor shaxs Apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya tartibida shikoyat kiritish huquqiga ega.

17. Universitet Apellyatsiya komissiyasi 5 kunlik muddat ichida murojaatni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi va qaror nusxasini murojaat qilgan shaxsga yuboradi:

shikoyatni qanoatlantirishni rad etib, Hakamlar hay'atining qarorini o'zgarishsiz qoldirish;

shikoyatni qanoatlantirib, Hakamlar hay'ati qarorini qisman yoki butunlay bekor qilish, yangi qaror qabul qilish.

18. Apellyatsiya komissiyasining apellyatsiya tartibida shikoyatni ko'rib chiqishi bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

19. Talabalarning eng sara ijodiy ishlari universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritiladi.

Universitet rekrorining
2024-yil “___” ____ dagi
____-sonli buyrug‘iga 3-ilova

**“Korrupsiyadan holi ta’lim muassasasi” mavzusida
“Eng yaxshi videoroliklar” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Ko‘rik-tanlov Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-noyabrdagi 426-sonli ““Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida “Eng yaxshi rasmlar”, “Korrupsiyadan holi ta’lim muassasasi” mavzusida “Eng yaxshi videoroliklar” respublika ko‘rik-tanlovlari hamda Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bilimlar bellashuvini tashkil etish to‘g‘risida” gi buyrug‘ida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minalash maqsadida tashkil etiladi.

2. “Korrupsiyadan holi ta’lim muassasasi” mavzusida o‘tkaziladigan “Eng yaxshi videoroliklar” ko‘rik-tanlovi (keyingi o‘rnarda – ko‘rik-tanlov) da universitetda tahsil olayotgan barcha talabalar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.

3. Nizom universitetda korruption holatlarni oldini olish, talabalarni bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish hamda ko‘rik-tanlov yuzasidan sovrindor talabalarni rag‘batlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni tartibga soladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovning maqsadi - yoshlarning korrupsiya holatlarga qarshi bilim va malakalarini oshirish hamda universitetda korruption holatlarni oldini olishdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

 yoshlar o‘rtasida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash, ularni turli korruption holatlarga aralashib qolishlarining oldini olish;

 yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatlari, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli komil inson qilib tarbiyalash;

 talabalarga o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli talabalarni har tomonlama rivojlantirish;

 tanlov bo‘yicha talabalarning ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

III. Ko‘rik-tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

6. Ko‘rik-tanlov joriy yil noyabr oyining uchinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi;

7. Ko‘rik-tanlovni o‘tkazish bo‘yicha mutaxassislar (universitet xodimlari, professor o‘qituvchilar) dan iborat Hakamlar hay’ati tuziladi.

8. Talabalar tomonidan mavzu bo'yicha tayyorlangan ijodiy ishlar universitet kesimida tuzilgan Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi.

9. Ko'rik-tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o'tkazish Respublika Tashkiliy ishchi guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

10. Videoroliklar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

g'oyaning originalligi va dolzarbligi - videorolik tanlov talablariga javob berishi hamda unda aks ettirilgan voqeа-hodisaning ahamiyati to'liq ochib berilishi kerak;

mavzuga mosligi - videorolik tanlov mavzusiga hamda tanlov oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalariga mos kelishi kerak;

g'oyaning yangiligi va antiqaligi - videorolik syujeti original bo'lib, boshqa videoroliklarning syujet va g'oyasini takrorlamasligi kerak;

ijodiy ish baholanishi jarayonida musiqali fon, video effektlardan foydalanilganligi, tomoshabinda tuyg'u va tasavvur uyg'ota olishi, kreativlik, ishning uslubiy jihatdan o'ziga xosligi, badiiy va texnik darajasi, efirga uzatish imkoniyati ham inobatga olinadi.

11. Taqdim etiladigan videoroliklar soni 2 tagacha, hajmi 200 megabaytgacha bo'lishi mumkin.

12. Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi (jami 40 ball).

13. Videoroliklarga qo'yiladigan talablar:

davomiyligi 3 daqiqa;

formati MPEG-4;

lavha formati 720r (1280x720) yoki 480r (854x480);

hajmi 100 megabaytgacha bo'lishi kerak.

14. Videorolik tasvirida muallifning bevosita ishtiroki shart emas.

15. Videorolikni suratga olish va montaj jarayonida maxsus dastur va uskunalardan foydalanish ishtirokchi (ijodiy ish muallifi)ning ixtiyoriga havola etiladi.

16. Videorolik janri (reportaj, videoklip, animatsion syujet va boshqalar)ni ishtirokchining o'zi belgilaydi.

17. Videorolikda yoritilayotgan mavzu nomi ko'rsatiladi. Muallif, ta'lim muassasa nomi, o'qish kursi ko'rsatilishi qat'iyan taqiqilanadi.

V. Hujjatlarni taqdim etish tartibi

18. Talabalarning ijodiy materiallari — videoroligi (elektron shaklda) hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi) Yoshlar ittifoqi BT etakchisiga joriy yilning 23-noyabr sanasiga qadar taqdim etiladi. Ijodiy ishlar elektron arxivlangan holda taqdim etiladi.

19. Videorolik bilan alohida yozma ma'lumotda talabalarning fakulteti, kursi va ta'lim yo'nalishi to'liq ko'rsatiladi.

20. Yuqoridaagi talablarga javob bermaydigan ijodiy ishlar qabul qilinmaydi.

VI. Mualliflik huquqlari

21. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etayotgan videorolik(lar)da mualliflik huquqlari buzilganda, buning uchun ishni tanlovga taqdim etgan muallif (mualliflar jamoasi) javobgar hisoblanadi.

22. Videorolikni tanlovga taqdim etish bilan muallif (mualliflar jamoasi) tashkilotchilarga mazkur ishdan foydalanish (internet tarmog‘i, teledasturlarda joylashtirish va boshqa) huquqini topshiradi.

23. Videorolikda boshqa ishtirokchi yoki mualliflarning har qanday ijodiy ishlari (shu jumladan, video, reklama roliklari, kinematografik asarlaridan nusxa olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

24. Ko‘rik-tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan videorolik(lar)ning muallifi ekanligini, ularning ijodiy ishida boshqa shaxslarning intellektual mulkka bo‘lgan huquqini buzilmaganligini kafolatlaydi. Mazkur talab buzilgan taqdirda, ishtirokchi tashkilotchilarga barcha zarar hamda tashkilotchilarning o‘z huquqlarini himoya qilishi uchun ketkazgan xarajatlarini qoplash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

25. Ko‘rik-tanlov ishtirokchisi ijodiy ishi baholash jarayonida oshkora namoyish etilishi va muhokama qilinishiga o‘z roziliginibildiradi.

26. Ko‘rik-tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlariga munosabat bildirilmaydi va qaytarilmaydi.

27. Tashkilotchilar tanlovga taqdim etilgan ishlardan tanlovnini yoritish, to‘plam yaratish va tarqatish maqsadida foydalanishlari mumkin.

28. Videorolikni tanlovga taqdim etish orqali ishtirokchi ushbu Nizomning barcha bandlariga o‘z roziliginibildiradi.

VII. Ko‘rik-tanlov g‘oliblarini taqdirlash

29. Ko‘rik-tanlovda yuqori (1-, 2-, 3-o‘rin) o‘rinni egallagan talabalar universitet tomonidan maxsus diplom va quyidagicha pul mukofoti:

1-o‘rin – 1.500.000 (bir million besh yuz ming) so‘m;

2-o‘rin – 1.000.000 (bir million) so‘m;

3-o‘rin – 500.000 (besh yuz ming) so‘m bilan rag‘batlantiriladi.

Shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan talabalar universitetning faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi. Yuqori (1-, 2-, 3-) o‘rnlarni egallagan talabalarning ijodiy ishlari universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritiladi.

30. Hakamlar hay’ati tomonidan qabul qilingan qarorga nisbatan qaror nusxasi berilgan sanadan boshlab 3 kunlik muddat ichida manfaatdor shaxs Apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya tartibida shikoyat kiritish huquqiga ega. 31. Universitet Apellyatsiya komissiyasi 5 kunlik muddat ichida murojaatni ko‘rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi va qaror nusxasini murojaat qilgan shaxsga yuboradi:

shikoyatni qanoatlantirishni rad etib, Hakamlar hay’atining qarorini o‘zgarishsiz qoldirish;

shikoyatni qanoatlantirib, Hakamlar hay’ati qarorini qisman yoki butunlay bekor qilish, yangi qaror qabul qilish.

32. Apellyatsiya komissiyasining apellyatsiya tartibida shikoyatni ko‘rib chiqishi bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

33. Talabalarning eng sara ijodiy ishlari universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritiladi.

Universitet rekrorining
2024-yil “___” ____ dagi
____-sonli buyrug‘iga 4-ilova

Universitetda “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida “Eng yaxshi rasmlar”, “Korrupsiyadan holi ta’lim muassasasi” mavzusida “Eng yaxshi videoroliklar” ko‘rik-tanlovlari bo‘yicha shikoyatlarni qanoatlantiruvchi Apellyatsiya komissiyasi tarkibi

1	R.Choriyev	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor – komissiya raisi
2	L.Babajanov	"Gidrotexnika qurilishi" fakulteti dekan o‘rnibosari – komissiya a’zosi
3	X.Pirmatov	"Ekologiya va huquq" fakulteti dekani – komissiya a’zosi
4	Q.Shavazov	"Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti dekani – komissiya a’zosi
5	A.Isaqov	"Energetika" fakulteti dekani – komissiya a’zosi
6	A.Inamov	"Yer resurslari va kadastr" fakulteti dekani – komissiya a’zosi
7	J.Ishchanov	"Gidromelioratsiya" fakulteti dekani – komissiya a’zosi
8	U.Alimov	"Iqtisodiyot" fakulteti dekani – komissiya a’zosi